

## MUSIQASHUNOSLIKDA IBN SINONING O‘RNI

**Toshboyeva M.**

**Yunus Rajabiy nomidagi O‘zbek Milliy Musiqa San’ati Instituti**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada buyuk alloma Abu Ali ibn Sino (Avitsenna) ning musiqashunoslik sohasiga qo‘shgan ilmiy hissasi har tomonlama tahlil qilinadi. Ibn Sino — o‘z davrining mashhur tabibi, faylasufi, mantiqchisi va matematik bo‘lishi bilan birga, musiqa nazariyasini ham chuqur o‘rgangan va bu sohada izchil asarlar yozgan. U musiqani matematik fanlar qatoriga kiritib, tovushlar tabiati, ularning nisbatlari, garmoniyasi, musiqaning ruhiyatga ta’siri, cholg‘u asboblari va ularning tabiati haqida ilmiy-nazariy mulohazalar bildirgan. Ayniqsa, u Pifagor va Forobiy ta’limotlarini rivojlantirib, musiqaga falsafiy va estetik yondashuvni boyitgan. Maqolada Ibn Sinoning musiqaga oid qarashlari, tarixiy manbalarda saqlanib qolgan risolalari, shuningdek uning musiqiy merosining O‘rta Osiyo va butun dunyo musiqashunosligiga ta’siri haqida muhim dalillar keltiriladi. Unga oid risolalarni o‘rganib chiqqan zamonaviy tadqiqotchilar, xususan Zokirjon Oripovning yondashuvlari ham maqolada tahlil etiladi. Ibn Sinoning musiqaga oid qarashlari nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham dolzarbdir.

**Kalit so‘zlar:** Ibn Sino, musiqa nazariyasi, maqom, g‘ijjak, musiqashunoslik, O‘rta asrlar, Pifagor, Forobiy, Zokirjon Oripov

**Kirish:** Toshboyeva M. O‘zbekiston milliy musiqa madaniyati – xususan, maqom san’ati – chuqur tarixiy ildizlarga ega bo‘lib, uning shakllanishi va rivojlanishida ko‘plab buyuk mutafakkirlar o‘z hissasini qo‘shgan. Ular orasida Abu Ali ibn Sino alohida o‘rin egallaydi. Ibn Sino ilm-fanning deyarli barcha sohalarida iz qoldirgan qomusiy shaxs bo‘lishi bilan birga, musiqa sohasida ham chuqur tadqiqotlar olib borgan.

**Asosiy qism:**

Faqat sog‘lom ruhiyat-salomatlikni kafolatlaydi.

Abu Ali Ibn Sino

Buyuk mutafakkir Abu Ali ibn Sino ilm-fan taraqqiyotiga ulkan hissa qo‘shgan allomalarimizdan biri hisoblanadi. Ibn Sino O‘rta Osiyolik buyuk qomusiy olim bo‘lib, u o‘z zamonasida nafaqat tabobatda balki falsafa, musiqa va mantiq kabi sohalarida ham eng bilimdon shaxslardan biri bo‘lgan. Shu asnodda biz bugungi kunda

Ibn Sinoning fan va ta'lim yo'lida ilgari surgan ta'limotlarini o'qib o'rganamoqdamiz va bu ta'limotlar tajriba sifatida qo'llanilmoqda. So'z boshida buyuk alloma hayoti haqida qisqacha ma'lumot keltirmoqchiman. Manbalarda keltirilishicha Ibn Sino Buxoroning Afshona ya'ni hozirgi Isfana qishlog'ida dunyoga kelgan. U besh o'n yoshlaridan maktabdagi ta'lim oladi va keyinchalik maktabni bitirgach, ustozlari Abu Abdullohdan mantiq, tibbiyot, falsafa, riyoziyot va fiqh ilmlarini o'rganadi. Ibn Sino 16 yoshidan boshlab turli fanlar bo'yicha Sharq va G'arb olimlarining ilmiy asarlarini mustaqil o'rgangan. Ayniqsa u tabobat ilmining qadimgi allomalari bo'lgan Gippokrat va Galen hamda o'rta asr Sharqining buyuk hakimi va mutaffakiri Abu Bakr ar-Roziyning asarlarini puxta o'rganib chiqqan. Ibn Sino o'n yetti yoshidayoq e'tiborli hakim va olim bo'lib yetishadi. Toshboyeva M. "U Buxoro amiri Nuh ibn Mansurni davolab tuzatgach, somoniylarning saroy kutubxonasidan foydalanishga ruxsat oladi. Kutubxonada u bir yil davomida turli sohalaridagi ilmiy asarlarni mutolaa qilib, bilimlarni chuqurlashtiradi. X asr oxiri va XI asr boshlarida Mavarounnahr va Xurosonda yuzaga kelgan og'ir sharoitda Ibn Sino ona shahri Buxoroni tark etib, avval Urganch shaxrining Xorazmshohi Ma'mun saroyidagi olimlar qatoridan o'rin egallagan. U umrining ohirigacha ko'plab shaxarlarida hukmdorlar qo'l ostida tabiblik va vazirlik qiladi" [10.20-bet.] Nazariy nuqtai nazardan olib qaraydigan bo'lsak Ibn Sino o'rta asr an'alariga ko'ra musiqani "Matematik bilimlar" toifasiga kiritgan va u musiqaga tovushlarni o'rganuvchi hamda ularning mutanosib jo'rliqi natijasida kuy hosil bo'luvchi fan deb qaragan edi. U Pifagor ta'limotidan kelib chiqqan holda, "Musiqasi sonlarga tegishli va ular bilan uzviy bog'liqdir" deb bilgan. Ibn Sino tarixda birinchi bo'lib musiqaga faqat matematik fan emas, balki jamiyatshunoslik, psixologiya, poetika, etika va fiziologiya nuqtai nazaridan ham qarab olgan bo'lib, musiqasi tarixiga puxta ilmiy tayanchni asoslab bergan edi. Ibn Sino ilm-u tashviqot ishlarida tovushdan tortib to murakkab tuzilmalargacha ko'rib izlanishlar olib boradi. Bu orada Ibn Sino Aristotel an'alarining davomchisi bo'lib, nafaqat musiqasi balki she'riyat masalalarini davom ettirgan donishmanlardan biri. U she'riyat va musiqasi orasida eng katta ko'priki bu "Vazn" ekanligini manbalarda qayd qilib o'tgan. Bu bilan u bu barcha unsurlar uyg'unlashuvi muammolariga ham alohida e'tibor qaratgan hamda she'riyat va musiqasi asari mukammalligining eng muhim shartlaridan biri ushbu unsurlar deb hisoblagan. Ibn Sino musiqasi cholg'ularini ham ishtiyoq bilan o'rgangan. E'tiborli tomoni shundaki, Ibn Sino odam ovozi eng mukammal asbob

deb bilgan va boshqa cholg‘u asboblarni esa shunga qiyos qilib o‘rgangan. Ibn Sinoning eng sevimli asbobi g‘ijjak bo‘lgan ekan. U g‘ijjakni odam ovozigacha eng Toshboyeva M. yaqin turadigan tabiiy va qoyilmaqom cholg‘u asbobi deb bilgan. Bundan tashqari ud, tanbur, rubob, nay, sunray va qonun asboblari to‘g‘risida ma‘lumotlar berib, ularning ijrochilik xususiyatlari o‘zaro qo‘shilishiga tegishli ko‘p masalalarda to‘xtalib o‘tgan. Buyuk olim O‘rta Osiyoda keng tarqalgan kamonli asbob bo‘lmish g‘ijjakni ham ixtiro qilgan. Ibn Sino musiqa bobida Forobiyni ilmiy yo‘nalishini davom ettirgan yirik nazariyotchidir. Safiuddin Urmaviy kabi keyingi davr musiqashunoslari ham Ibn Sinoning nazariyalariga asoslagan holda "Ilmi-advor" kabi musiqiy tizimlarni yaratgan. Uzoq tarixdan to hozirgi davrgacha Ibn Sino ijodini o‘rganish bilan birgalikda davom ettirib kelayotgan musiqashunoshlar ham yetarlicha. Ular Abdurauf Fitrat, Zokirjon Oripov, Oqilxon Ibrohimov, Is‘hoq Rajabov, Abdurahmon Nazarov kabi milliy musiqamiz rivojiga beqiyos hissa qo‘shgan olimlar va musiqashunoslardir. O‘zbekiston musiqashunolaridan, xususan, klassik Sharq musiqasi nazariyasini tadqiq qiluvchilar Ibn Sinoning musiqiy risolalariga katta e‘tibor berishadi. Ular Ibn Sinoning musiqiy akustika, tovushlar, intervallar, jins va jam‘lar, maqomlar, ritmlar va kuylar haqidagi nazariyalarini tahlil qiladilar. Ularning orasida eng ko‘p ma‘lumot to‘plagan va biz yoshlarga sodda tilda tushunarli qilib yozib qoldirgan musiqashunos olim bu Zokirjon Oripovdir. Uning “X-XV Asrlar Markaziy Osiyo Musiqa Manbashunosligi” deb nomlangan monografiyasida Ibn Sino to‘g‘risida ko‘plab aniq va ahamiyatga molik fikrlar keltirilgan. Ushbu kitob bizni Ibn Sinoning hayot yoli bilan yaqindan tanishtirishdan tashqari, uning har bir asari haqida jo‘yali ma‘lumot olishni ta‘minlaydi. Ushbu monografiyada Ibn Sinoning to‘liq ismi, otasi Abu Abdulloh Xasan haqida va unga bilim bergan barcha ustozlari haqida to‘liq ma‘lumotlar keltirilgan. Bundan tashqari ushbu monografiyada Zokirjon Oripov Ibn Sinoning har bitta asariga alohida ta‘rif beriladi. Eng e‘tiborli jihati shundaki Monografiyada bugungi kunga qadar saqlanib qolgan asarlar va zamon zayli bilan Toshboyeva M. bizgacha yetib kelmagan asarlarining har biriga alohida toxtalib urg‘u berilgan. Misol uchun “Najot kitobi” ilmiy qomusiy asarining musiqaga bag‘ishlangan qismi “Musiqa ilmida qisqartma”. Bu asarni Ibn Sinoning shogirdi va yaqin safdoshi Juzjoniy o‘z ustozining “Ash-shifo” asarini musiqaga oid qismini qisqartirgan va “An-najot” asariga kiritgan. Bu to‘plamni “Musiqa ilmida qisqartma” deb atagan. O‘z zamonasining donolaridan bo‘lgan Zakariyo Yusufning fikricha, bu

asar mustaqil va alohida yozilgan bo‘lib, “Najot” kitobiga qo‘shimcha qilingan risoladir, uni Ibn Sinoning shogirti Al-Juzjoni bu asarni biron asaridan qisqartirib olmagan degan fikrlarni ilgari surgan. Keyinchalik bu asar Xaydarobodda nashr etilgan. Zokirjon Oripov Ibn Sinoni “Shifo” kitobining musiqaga bag‘ishlangan bo‘limi bo‘lmish “Musiqqa ilmi to‘plami” xususida quyidagi fikrlarni keltirib o‘tadi. “ - Asaning mundariyasi bilan tanishishni o‘zidayoq u musiqashunoslikka oid barcha masalalarni qamrab olganini ko‘rsatadi. Bu to‘plamda Ibn Sino ovoz, nag‘maning hosil bo‘lishdan to musiqiy asarning yaratilishigacha, sibizg‘adan tortib ud musiqqa so‘zigacha, musiqqa so‘zi ta‘rifidan to musiqaning nafsga ta‘sirigacha bo‘lgan masalalar haqida bahs qiladi”. [11.34-bet.] Bu dalillarning isboti bilan keltirilishidan ko‘rinib turibdi-ki Ibn Sinoning musiqaga qo‘shgan hissasi be‘qiyos va musiqashunos olim Zokirjon Oripov ham uning ilmiy risolalarini juda chuqur o‘rgangan. Ushbu asar bir nechta tilga tarjima qilingan. Jumladan, Mahmud Ahmad Hafniy “Musiqqa bo‘limida qisqartma” asarini nemis tiliga tarjima qilgan va o‘sha vaqtning o‘zida uning Arabcha matnini chop ettirgan. Shu bilan birgalikda Zokirjon Oripov Ibn Sinoning “Donishnoma” deb ataluvchi asarini ham tahlil qiladi va bu asarni Isfahon amiri Alouddavla sharafiga yozilganligini ta‘kidlangan. Uning fikriga ko‘ra Ibn Sinoning uchinchi ilmiy qomusiy asari ilgarigi ikkitasidan kichik bo‘lgan va unda ham musiqaga oid qismi mavjud bo‘lgan. “Donishnoma” asarining musiqaga bag‘ishlangan qismini matni 1935-yil Haydarobodda, 1931-yil Toshboyeva M. nemischa tarjimasini bilan Berlinda, 1958-yil fransuzcha tarjimasini Parijda hamda, 1967-yil fransuz tilidan rus tiliga tarjimasini Dushanbeda chop etilgan. Ibn Sino asarlari musiqqa sohasida bebaho ahamiyat kasb etadi. Musiqqa ilmiga oid masalalar Ibn Sinoning ko‘plab asarlarida o‘z ifodasini topadi. Afsuski, ularning hammasi ham bizgacha yetib kelmagan. Ibn Sinoning bizgacha etib kelmagan yoki shu paytgacha topilmagan, ammo turli manbalarda zikr etib o‘tilgan musiqaga oid asarlarini quyida keltirib o‘tmoqchiman. Misol uchun “Musiqqa san‘atiga kirish” risolasi. Bu risola mavjud bo‘lganligi haqidagi ma‘lumotni Ibn Sino asarlari ro‘yxatini tuzgan Ibn Abi Useybianing jamlanmasida keltirilganligidan bilib olishimiz mumkin va bu asar “Najot” tarkibiga kirmaganligini hamda u o‘zi mustaqil, alohida risola ekanligini bilib olishimiz mumkin. Shular qatordai yana bir risola mavjud bu “Qo‘shimchalar kitobi”dir. Bu kitobni Ibn Sinoning o‘zi “Shifo” ning musiqqa haqidagi qismini “Musiqqa ilmi to‘plami”ni tugata turib eslagan u shunday ta‘rif bergan: “Biz haqiqatan musiqqa haqidagi so‘zimizni shu yerda tugatamiz va Xudoyi

taolo hohlasa ko‘p qo‘shimcha va ziyoda so‘zlarni “Qo‘shimchalar kitobidan topasiz”deya ta’kidlagan. Zokirjon Oripovning bizga bergan ma’lumotlariga ko‘ra “Musiqqa haqida risola” asari Abu Ubayd Juzjoniy tuzgan Ibn Sino asarlari ro‘yxatida “Shifo” dan boshqa musiqqa haqida risola ekanligi va Zahiriddin Bayhaqiya uni “Shifo”dagidan o‘zga musiqqa haqida risola deb ta’kidlagan. Ushbu asar keyinchalik Berlinda nashr ettirilgan. Hozirgi kunda Ibn Sinoning quyida misol qilib keltirilgan musiqqa oid asarlari hanuzgacha ilm fanga yopiq bilimlar kalitili bo‘lib qolmoqda. O‘zbekistonda Ibn Sino ilmiy-ma’naviy merosini, jumladan, uning musiqqa nazariyasini chuqur o‘rganish bo‘yicha salmoqli ishlar qilingan va hali ham qilinib kelinmoqda. Shu sababli ham bugungi kunda musiqashunos olimlarimiz Ibn Sinoning musiqqa oid bo‘lgan asarlarini Toshboyeva M. o‘rganishni allaqochon boshlab yuborishgan. Ijtimoiy tarmoqlardagi ma’lumotlarga ko‘ra, Ibn Sinoning musiqiy merosini o‘rganishda nafaqat O‘zbekiston, balki butun dunyo bo‘ylab ko‘plab olimlar ilmiy izlanishlar olib bormoqdalar. Bu borada yana bir musiqashunos A. Nazarov buyuk faylasuf olimlar Forobiy va Ibn Sino musiqiy ritmikasi xususidagi qarashlari asosida tadqiqotlar olib borgan. Ibn Sinoning musiqaning inson salomatligiga, ayniqsa ruhiy holatga ta’siri haqidagi fikrlari ham keng o‘rganiladi. Uning musiqaning tarbiyaviy ahamiyati, bolalarda musiqiy hissiyotni rivojlantirish muhimligi haqidagi g‘oyalari pedagogika va tibbiyot sohasidagi olimlar tomonidan tahlil qilinadi. Ibn Sino nafaqat musiqashunos, balki faylasuf va qomusiy olim bo‘lganligi sababli, uning musiqqa oid qarashlari falsafiy nuqtai nazardan ham o‘rganiladi. O‘zbekiston Fanlar Akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti kabi muassasalarda Ibn Sinoning qo‘lyozmalari saqlanadi va tahlil qilinadi. Bu tadqiqotlar uning musiqani matematik va fizik qonuniyatlar bilan bog‘liqligi haqidagi yondashuvini chuqurroq o‘rganishga qaratilgan. Ibn Sinoning musiqiy merosini o‘rganish nafaqat O‘zbekiston bilan cheklanib qolmaydi. Umumjahon miqyosida ko‘plab olimlar uning asarlariga murojaat qilganlar. Jumladan, Eron Islom Respublikasida Ibn Sino ilmiy merosiga, uning falsafiy va musiqiy qarashlariga katta e’tibor qaratiladi. Hamadon shahrida Xalqaro Ibn Sino fondi faoliyat yuritadi va bu yerda uning ijodini o‘rganish bo‘yicha ilmiy tadbirlar o‘tkaziladi. Eronlik olimlar Ibn Sinoning fors va arab tilidagi asarlarini chuqur tadqiq etishadi. G‘arbda Ibn Sino Avitsenna nomi bilan tanilgan bo‘lib, uning tibbiyotga oid asarlari asrlar davomida Yevropa universitetlarida o‘qitilgan. Musiqqa nazariyasiga oid qarashlari ham g‘arb olimlari tomonidan

o‘rganilgan, ayniqsa Sharq va G‘arb musiqa nazariyalari o‘rtasidagi bog‘liqlikni tahlil qilishda uning hissasi e’tirof etilgan. Bundan tashqari Toshboyeva M. Forobiy va Kindiy kabi o‘rta asr musulmon olimlari musiqa nazariyasiga katta hissa qo‘shgan bo‘lib, Ibn Sino ularning ishlarini davom ettirgan. Xulosa qilib aytganda, Ibn Sinoning musiqiy merosi uning qomusiy bilimining muhim qismi bo‘lib, uni o‘rganishga O‘zbekiston, Eron, Yevropa va boshqa mamlakatlarning ko‘plab musiqashunos, falsafashunos, sharqshunos va tibbiyot sohasidagi olimlari o‘z hissasini qo‘shib kelmoqdalar.

**Xulosa:** Ibn Sino musiqani inson ruhiyati va jismoniy holatining muhim ifodasi sifatida ko‘rgan va uni chuqur ilmiy tahlil qilgan. U musiqani faqat san‘at emas, balki matematik asoslarga tayangan ilmiy fan deb hisoblagan. Tovushlar, intervallar, ritmlar, maqomlar va cholg‘u asboblari doir qarashlari orqali u Sharq musiqiy tafakkuriga ilmiy asos yaratgan. Ayniqsa, musiqaning tarbiyaviy va psixologik ahamiyatini ta’kidlagani uning ilg‘or qarashlaridan dalolat beradi. Zamonaviy musiqashunoslar, xususan Zokirjon Oripov kabi olimlar Ibn Sinoning merosini chuqur o‘rganib, uni bugungi avlodga yetkazishda katta hissa qo‘shganlar. Ibn Sinoning “Shifo”, “Donishnoma” va boshqa asarlaridagi musiqiy nazariyalar bugungi kunda ham o‘z dolzarbligini yo‘qotmagan. Xulosa qilib aytganda, Ibn Sino — musiqashunoslik tarixida o‘ziga xos iz qoldirgan, ilmi bilan Sharq va G‘arb madaniyatini bog‘lagan ulug‘ allomadir.


#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Donishname, Kniga znaniya, Dushanbe 1957;
2. K.Rozenshild. Istoriya zarubejniy muziki Moskva “Muzika”1973. Toshboyeva M.
3. Buyuk faylasuf, tabiatshunos, mashhur tabib, shu bilan birga ajoyib musiqa nazariyachisi bo‘lmish Abu Ali Ibn Sino
4. Shular jumlasidan Oksford nusxasi № 109;
5. Oksforddagi Bodlin kutubxonasi nusxasi № 250;
6. London kutubxonasining Hind bo‘limi nusxasi № 4752;
7. Qohiradagi “doru-1-kutub” kutubxonasi nusxasi № 475;
8. Gollandiya, Lend universiteti nusxasi № 14505 (cod/ oz/ 84) va boshqalar.
9. Islomiy Sharq tibbiyotining donishmandi Avitsena (Abu Ali ibn Sino, 983 — 1036) „Tib qonunlari“ da musiqaning terapevtik vosita sifatida ta’siri haqida yozgan (2 1983-yil nashr, 25, 256-betlar va boshqalar.)

10. [Qoriyev M. Ibn Sino. Tarixiy roman. – Toshkent: “Sharq” nashriyot-matbaa kontsernining bosh tahririyati, 1995. 1.20.]

11. Зокиржон Орипов X-XV асрлар Марказий Осиё мусиқа манбашунослиги (Монография) Тошкент. 2017. 34-bet.

12. Aleman, A., Nieuwenstein, M.R., Böcker, K.B.E. & de Haan, E.H.F. (2000). "Musiqā mashg'ulotlari va aqliy tasavvur qobiliyati." *Neuropsychologia*, 38, 1664–1668.



Research Science and  
Innovation House

